

## TEATR FESTIVALLARINING SAHNAVIV VA INNOVATSION YECHIM SIFATIDAGI AHAMIYATI



**Shuhrat Abdumalikov**

Professor

O‘zbekiston respublikasi san’at arbobi

Email: [abdumalikof@mail.ru](mailto:abdumalikof@mail.ru)

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-13>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqaro va respublika teatr festivallarida namoyish qilinayotgan spektakllardagi stsenografiyaning o‘rni, uning tajriba va innovatsiyalar uchun zamin yaratishdagi badiiy-ijodiy jihatlarni yosh teatr rassomlar ijodi misolida ochib berildi.

**Kalit so‘zlar:** Teatr, rejissyor, sahna, sofit, antrakt, drama, spektakl, dramaturg, libos, grim.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается роль сценографии в спектаклях, представляемых на международных и республиканских театральных фестивалях, а также её художественно-творческие аспекты в создании основы для экспериментов и инноваций на примере творчества молодых театральных художников.

**Ключевые слова:** Театр, режиссёр, сцена, софит, антракт, драма, спектакль, драматург, костюм, грим.

**Abstract:** This article explores the role of scenography in performances presented at international and national theater festivals, highlighting its artistic and creative aspects in fostering experimentation and innovation through the works of young theater artists.

**Keywords:** Theater, director, stage, spotlight, intermission, drama, performance, playwright, costume, makeup.

Bugungi kunda respublikamiz teatrlari sahnalarida olib borilayotgan ijodiy-izlanish jarayonlari natijasida O‘zbekiston stsenografiyasida ham tub burilishlar ro‘y bermoqda. Teatr rejissyorlari “tandem” (ijodiy hamkorlik) tariqasida teatr rassomlari, ya’ni stsenograflar bilan uzviy bog‘liqlikda ijodiy-hamkorlik ishlarini olib bormoqda. Zamonaviy stsenografiya endi o‘zining “shartliligi” bilangina emas, balki falsafiy-psixologik shakl va mazmun mohiyatlari bilan ham o‘z ifodasini tasdiqlab kelmoqda. Sahna bezaklari yoki dekoratsiyalari davr talabiga asosan o‘zining “illyustratsion” xususiyatlarini yo‘qota boshladi, zamonaviy sahnaga esa o‘z o‘rnida badiiy g‘oya va shakl kirib kela boshladi. Bunday reformatsiyalar spektakldagi sahna bezagi shaklini mutloq boshqa traktovkalarda (talqin) o‘qishni va anglashni taqozo etadi.

Hammamizga ma’lum, o‘tgan asr spektakllarida parda ochilishi bilanoq mahobatli va hayratli sahna dekoratsiyalari yorqin olqishlar bilan kutib olinar edi. O‘sha davr teatr san’atida rassomning o‘rni bezakchi – illyustrator sifatida belgilangan bo‘lib, rejissura va aktyorlik mahorati tanqidga uchragan holatda ham rassomning reputatsiyasi saqlanib kelingan. Rassomning badiiy bezak yechimi tomoshabinlar va teatr mutaxassislari tomonidan go‘yoki spektakl mahsulotidan xolisona tarzda qabul qilingan. Hozirgi kunga kelib, bunday tushunchalar eski mifga aylandi va inqirozga uchradi deb ishonch bilan ayta olamiz. Bugungi spektakl asari dramaturgiya, rejissura, kompozitorlik va baletmeysterlik, qolaversa stsenografik badiiy yondoshuvlarga muhtoj. Stsenografiya bu — sahna, aktyorlar muhiti, libos, grim, yoritish san’atini rassom mujassamlashtirgan barcha elementlar, ya’ni atrof-muhitning makonli aniqligidir. Agarda rejissura va aktyorlar mahorati sust holda namoyish etilsa, sahna bezagi, liboslar va grimlar hammasi – bir yaxlitlikda saviyasiz spektakl qurboniga aylanishi mahol. Demak, yuqorida

ko'rsatilgan spektakl komponentlarining har biri yaxlit badiiy mahsulotning samarasiga javobgardir.

Spektaklning yuqori saviyada ishlab chiqilganligi va badiiy darajasi bosqichlarini aniqlab beruvchi tendentsiyalardan biri bu – xalqaro teatr va ko'rik tanlov festivallardir. Respublikamizda bugungi kunga qadar an'anaviy tarzda shakllangan va spektakllarimizdagi yangi sermahsul jarayonlarni hammamizga munosib tarzda namoyish ettira oladigan ko'rik- tanlov festivali o'z tasdig'ini topdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida yurtimizda ko'plab "Sharq — g'arb" (1993), "Navro'z" (1994), "Teatr chorrahilari" (1995), "Sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi" (1996) xalqaro va respublika festivallari o'tkazildi. XXI asrning boshlariga kelib, teatr festivallari yangicha tus oldi. Ular — tanlov, ko'rik va debyutlarga yo'naltirildi, o'z o'rnida teatrni reformatsiya etish va undagi taraqqiyparvar tendentsiyalarni yoritishga qaratildi. Jarayonlar yosh rejissyorlar, dramaturglar va stsenograf rassomlarning teatr laboratoriyasida shakllanishiga xizmat qilish, ularning yangicha tafakkur etishga da'vat etdi. Tajriba va innovatsiyalar uchun zamin yaratib kelayotgan dunyodagi eng qadimiy va nufuzli teatr festivallaridan — Avignon festivali (Fransiya) va "Oltin niqob" (Rossiya) hisoblanib, muloqot va hamkorlik uchun sharoit yaratgan holda, xalqaro teatr hamjamiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, festivallar turli mamlakatlar va madaniyatlarning stsenariy mualliflari o'rtasida tajriba almashishga yordam beradi O'ziga xos murakkab loyihalarda yosh rejissyorlar va stsenograflar taqdim etmoqchi eksperimental-novatorlik izlanishlar, noan'anaviy badiiy yechimlar va g'oyaviy shakllarni kutamiz, ularni spektakllarda izlaymiz, kuzatamiz.

"Seni kuylayman zamondosh" teatr ko'rik-tanlov festivalining so'nggi yillardagi mavsumlarida poytaxtimiz va viloyatlarimiz teatrlaridan taqdim etilgan bir necha spektakl loyihalarini ko'rib kuzatishga muvaffaq bo'ldik. Debyut va tanlov festivallarida taqdim etilgan spektakllarda rejissyorlarning kontseptual yondoshuv jihatdan xilma-xilligi, stsenograf rassomlarning mualliflarcha olib borgan badiiy jihatlarni uchratish mumkin. Bu borada dramaturgiyaning turli usullardagi talqini ham bizni e'tiborsiz qoldirmadi. Yil davomida orziqib kutiladigan spektakl asarlari tomoshabin va mutaxassislarining olqishlariga sazovor bo'lishiga umid bog'laydi. Ammo hamma asarlar ham san'at asarlariga aylanib qolmaydi. Spektakldagi rejissura va stsenografiyaning darajali ishlanmalari tahliliy jarayonga bog'liq. Muhimi esa, darajali va kreativ tanqidiy tahlilning zaruriyatidir.

Spektakldagi stsenografik yechim to'g'risida gap yuritilganda o'z o'rnida asardagi professional badiiy sahnaviy yechim haqida gap ketadi. Tandem borasida spektaklning stsenografiyasini rejissyor va rassom hal etadi. Tajriba, intuitiv va eksperimental izlanishlar davomida rassom rejissyorga kontseptual tasviriy yechimlar taqdim qiladi. Bu yechimlar spektaklning shakliy va g'oyaviy mohiyatini, funktsional jihatlarni aktual tarzda ushlab turadi. Mana shunday jihatlardan biri Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri taqdim etgan "Muhabbatim qismatim" (X.Xursandov asari) spektaklida o'z aksini topgan. Spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori F.Boltayev o'rtaga tashlagan "rejissyorlik kontseptsiyasi" stsenografik yechimga yo'naltirilgan bo'lib, bunda asosiy maqsad — noan'anaviy, o'ziga xos mualliflarcha badiiy yechimni keltirishdir. Spektakl ijodiy ishlab- chiqarish jarayonida stsenograf turli xomaki eskizlar ustida izlanishlar olib borgan. Bu mashaqqatli ijodiy jarayonda rejissyor ham uzluksiz ishtirok etadi va stsenografik badiiy tasvirning tug'ilishiga asos soladi. Zamonaviy stsenografiyada faktura, tekstura, bo'rtirma rel'eflar va tabiiy ashyolar ahamiyatli ravishda xizmat qiladi. Misol uchun, spektakldagi arqonlardan shakllantirilgan daraxt timsoli, aniqrog'i obrazi — hammaning diqqatini faqatgina virtual qarashga emas, balki o'ylantirishga ham chorlaydi. Bu daraxt timsoli bizni assotsiativ fikrlashga, uning qay tarzda yaratilganligini anglashga va funktsional mazmun mohiyatlarini o'rganishga majbur etadi. Bugungi stsenografiya tomoshabinlarning ko'zini qamashtirishga xizmat qilmaydi, u tomoshabinni spektakl davomida tafakkur etishga, metaforalar yordamida hissiy kechinmalarga duchor qiladi. Sahnalashtiruvchi rassom Xayrulla Chorshanbiyevning spektaklga yaratgan stsenografik kontseptual yechimi o'zining g'oyaviy transformatsion jihatlari bilan ajralib turadi. Badiiy — sahnaviy yaxlitlikda o'z yechimini topgan daraxt timsolining turli va cheksiz shakllarda o'zgarib borishi — rejissyorlik

ishlanmalarida bamisoli xizmat vositasini o‘taydi. Spektakl stsenografiyasi bu – lirik simbolizm uslubida sahnalashtirilgan badiiy yechimdir. Ushbu falsafiy mushohada etilgan yaxlit shakl — sahnada “yordamchi” yoki ortiqcha dekoratsiyalarni sig‘dirmaydi. U tomoshabin bilan virtual aloqa bog‘lagan holda o‘z nomidan gapiradi. Bunda, badiiy did bilan yondoshilgan jarayon o‘zining lokalizm qonuniyatlarini taqozo etadi. Hozirda ham dolzarb hisoblanmish “arqonli daraxt”lar ustida badiiy izlanishlar bir necha yillar avval stsenograflar Sh.Abdumalikov va J.Rahimov tomonidan ko‘pgina spektakllarda farqli ravishda qo‘llanib kelingan. Bugungi spektakldagi ekstraordinar sahnaviy-tasviriy yechimni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash lozimki, hozirda ham tabiiy ashyolardan biri hisoblanmish “arqon” elementi teatr rassomlari uchun impravizatsion-novatorlik izlanishlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Poytaxtimiz teatrlaridan O‘zbek Milliy akademik drama teatri tomonidan taqdim etilgan “O‘zgaralar dardi” spektakl stsenografiyasini “o‘zgacha” deb belgilash qiyin. Spektaklning postanovkachi rejissyori Asqar Holmo‘minov va postanovkachi rassom Flyura Gazizova hamkorligida loyihalashtirilgan stsenografik yechim illyustrativ — realistik shaklga egadir. Badiiy-tasviriy mushohada qilinishi mumkin bo‘lgan va obrazlardan iborat bo‘lishi lozim bo‘lgan sahnaviy tasviri to‘g‘ridan-to‘g‘ri xonadonning realistik ko‘chirma asosida ishlangan. Bunday ishlanmalar o‘tgan asrning 60-70 yillarida poytaxtimiz va viloyatlarimiz teatr sahnalarida juda ko‘p qo‘llanilgan. Stsenografiya muallifi ushbu sahnaviy yechimni anglagan holda keltirgan bo‘lsada, undagi shakl va badiiy g‘oyani “retro” uslubiga mansub ko‘rishdan o‘zga chora yo‘q.

Namoyish etilgan ishtirokchi spektakllarning ba’zilarida inqirozli holatlarni uchratishimiz – bu teatr jamoasidagi badiiy salohiyatning sustligidir. Zamonaviy teatrlarda olib borilayotgan reformatsiyalar rejissyorlar, aktyorlar, teatr rassomlari, adabiy emakdoshlar va boshqalarning o‘z ustidan individual va jamoaviy tarzda ishlab borishi, badiiy jihatlarni o‘stirishi va eksperimentallik xususiyatlarga ega bo‘lishini taqozo etmoqda. Spektakl mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida stsenografik badiiy yechimning har qanday loyihani yuqori darajaga ko‘tarishini kuzatganmiz. Aks holda, rejissyorlarning o‘zi rassomlarga maqsadli yo‘nalishlar bera olmasligi natijasida, juda ko‘p muaommolar kelib chiqishini inkor qilish mumkin emas. Shunday spektakllar qatorida o‘rin olgan “Qaltis qadam” (Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatri) sahna ko‘rinishidagi “Katta qizil o‘rgimchak” timsolini misol ko‘rsatishimiz joizdir. O‘ziga xos ravishda katta “effekt”ga boy, tomoshabinlarda hayratli taassurot qoldiradigan shakl — professional auditoriyada primitiv va kon’ekturnaviy xulosa uyg‘otadi. Terrorchi guruhlarning o‘chog‘i bo‘lmish “o‘rgimchak ini” obrazi mana bir necha yillardan buyon eng “g‘oyasiz” spektakl tomoshalarining inqirozli sahnaviy bezagi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Vaholanki, bu sahnaviy obrazga falsafiy-badiiy izlanish yordamida yondoshilganda, salmoqli va salohiyatli natijalarga erishilgan bo‘lardir. Masalan, terrorchilarning (asardagi salbiy personajlar) qora tutunli sahna ostidan, yumaloq darcha teshiklardan chiqib kelishi yoki sahna quyi qismidan tushib kelishi – metaforali ma’noga ega bo‘lar edi. Hayotdagi og‘zaki gaplarimizga ibora qilsak – “bu yovuzlar yer tagidan chiqib keldi” va “dushmanlar osmondan ham tushib kelaverar ekanda”- degan tushunchalar biz teatr rassomlarga ahamiyatli ta’sirchanlik kuchiga ega bo‘lishi lozim. O‘z o‘rnida, tomoshabinlar bizdan ulkan taassurotlar kutishini ham ta’kidlash lozimdir.

Xulosa qilib o‘tish lozimki, respublikamiz teatrlaridagi zamonaviy spektakllarning stsenografiyasi dolzarb yondoshuvni talab etadi. Bunda, xorijiy teatrlarining samarali ijodiyotini o‘rganish, kuzatish va tajriba orttirish asosida malakalarni o‘zimizda qo‘llash o‘rinlidir. Teatr rassomlari o‘z spektakllari bilan xalqaro va respublika festivallarida ishtirok etishi va malakasini oshirishi natijasida yorqin, sifatli sahna bezaklarining yaratilishiga sabab bo‘ladi. qo‘llamoqdalar.